



BUDJET MABLAG‘LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17977707>

Iskandarov Zaylidin Fayozidinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ta‘minlashda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Unda kuzatuv, komparativ, SWOT va kontent tahlili metodlari qo‘llanib, xalqaro tajribalar bilan solishtirildi. O‘zbekiston sharoitida “Ochiq budjet” portali, ishtirokchi byudjetlashtirish mexanizmlari va raqamli nazorat tizimlari ijobiy natijalar berayotganligi muhokama qilindi. Shu bilan birga, mavjud kamchiliklar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun aniq takliflar ishlab chiqildi.

KALIT SO‘ZLAR: budjet mablag‘lari, samaradorlik, jamoatchilik nazorati, ochiqlik, hisobdorlik, ishtirokchi byudjetlashtirish, korrupsiya, raqamli platformalar, ochiq ma‘lumotlar, fuqarolar ishtiroki, moliyaviy savodxonlik, davlat xaridlari, shaffoflik, nazorat mexanizmlari, xalqaro tajriba.

РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ ЗА ОБЕСПЕЧЕНИЕМ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ

Искандаров Зайлидин Фаёзидинович

Независимый исследователь (PhD) Ташкентского государственного экономического университета.

АННОТАЦИЯ: В статье рассмотрены вопросы развития общественного контроля в обеспечении эффективности использования бюджетных средств. Использованы методы наблюдения, сравнительного анализа, SWOT-анализа и контент-анализа, а также проведено сопоставление с международным опытом. Отмечено, что в Узбекистане положительные результаты дают портал «Открытый бюджет», механизмы партисипаторного бюджетирования и цифровые системы контроля. Вместе с тем выявлены существующие недостатки и предложены рекомендации по их устранению.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: бюджетные средства, эффективность, общественный контроль, открытость, подотчетность, партисипаторное бюджетирование, коррупция, цифровые платформы, открытые данные, участие граждан, финансовая грамотность, государственные закупки, прозрачность, механизмы контроля, международный опыт.



DEVELOPING PUBLIC CONTROL IN ENSURING THE EFFICIENCY OF THE USE OF BUDGET FUNDS

Iskandarov Zaylidin Fayozidinovich

Independent researcher (PhD) at Tashkent State University of Economics

Abstract: This article analyzes the development of public oversight in ensuring the efficiency of budget expenditure. Observation, comparative analysis, SWOT analysis, and content analysis methods were applied, along with a comparison of international practices. It is highlighted that in Uzbekistan, the “Open Budget” portal, participatory budgeting mechanisms, and digital monitoring systems are yielding positive outcomes. At the same time, existing shortcomings were identified, and practical recommendations were proposed to overcome them.

Keywords: *budget funds, efficiency, public oversight, transparency, accountability, participatory budgeting, corruption, digital platforms, open data, citizen participation, financial literacy, public procurement, openness, control mechanisms, international experience.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyotida budget mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish davlat moliyasining eng muhim vazifasiga aylanmoqda. Bunda qarorlar qabul qilish jarayoniga fuqarolarni jalb etish, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, xarajatlar tuzilmasi hamda natijadorlik ko‘rsatkichlarini jamoatchilik bilan birga tahlil qilish mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. “Jamoatchilik nazorati” tushunchasi faqat norasmiy fikr-mulohaza emas, balki hujjatlarni ochiq e‘lon qilish (byudjet/xaridlar ma‘lumotlari), jamoatchilik eshituvi, ishtirokchi byudjetlashtirish, fuqarolar hisobotlari, ommaviy monitoring va raqamli platformalar orqali uzluksiz qayta aloqa tizimini o‘z ichiga oladi. Mazkur mexanizmlar korrupsion xatarlarni kamaytiradi, davlat xaridlarida raqobatni kuchaytiradi, “pulga nimalar olindi va qanday natija berdi?” kabi asosiy savollarga aniq javob topishga yordam beradi.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida budget intizomi, davlat xaridlari sifati va korrupsiyaga chidamlilik masalalari keskin kun tartibida turibdi. 2025 yilda e‘lon

qilingan Transparency International‘ning “Corruption Perceptions Index 2024” hisobotida global o‘rtacha ball 43 bo‘lib, mamlakatlarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i 50 balldan past natija ko‘rsatgani qayd etilgan. Bu raqamlar jamoatchilik nazorati institutlarini kuchaytirmasdan turib barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va budget mablag‘larining samarali ishlatilishini ta‘minlash qiyinlashayotganini ko‘rsatadi[1].

Jamoatchilik nazorati tizimi kuchli bo‘lgan sharoitda davlat xaridlari va investitsion loyihalarda ochiq raqobat kengayadi, loyihalarning xarajat-foйда nisbatini jamoatchilik tekshirishi hisobiga samarasiz yo‘nalishlar erta aniqlanadi, xizmatlar sifati va qamrovi oshadi, soliq to‘lovchilarning davlat institutlariga ishonchi mustahkamlanadi. Shuningdek, fuqarolar va NNTlar ishtirokidagi monitoring ma‘lumotlari oliy audit institutlari, parlament va mahalliy kengashlar uchun daliliy baza vazifasini bajarib, nazoratning institutsional chiziqlarini bir-birini to‘ldiruvchi tizimga aylantiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida budgetga oid ma‘lumotlar hajmi va murakkabligi



ortayotgan bir paytda, faqat ichki audit yoki ma'muriy nazorat bilan kifoyalanish yetarli emas. Ochiq ma'lumotlar standartlari, real vaqt rejimidagi xaridlar reystrlari, ishtirokchi byudjetlashtirish platformalari va "fuqarolar uchun byudjet" hisobotlari kabi vositalar fuqarolarni qarorlar siklining barcha bosqichlariga jalb etishni talab qiladi. Demakki, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish-bu shunchaki yaxshi amaliyot emas, balki budjet mablag'larining maqsadli, tejamkor va natijador sarflanishini kafolatlaydigan, korrupsiya xatarlarini pasaytiradigan va makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladigan tizimli islohotlar majmuasidir. Shu asosda mazkur maqola jamoatchilik nazoratining konseptual asoslari, amaliy mexanizmlari va ularni samaradorlik ko'rsatkichlariga bog'lash yo'llarini tahlil qiladi, shuningdek, raqamli yechimlar va ochiq ma'lumotlar orqali kuzatuv va hisobdorlikni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalarni taklif etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bu tadqiqotlarda, asosan, ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolarning qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishi masalalari chuqur yoritilgan. Biroq, ushbu sohada hali ham ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish ilmiy hamda amaliy izlanishlarni talab etadi.

X. Muhamadaliyevich (2023) o'z tadqiqotida O'zbekistonda budjet mablag'lari ijrosini samarali tashkil etishda jamoatchilik nazoratining o'рни va ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. U o'z ishida budjet mablag'lari sarflanishi ustidan ommaviy monitoring mexanizmlarini joriy etish natijasida

korrupsion xavflar kamayishi va natijadorlik oshishini asoslab bergan [2].

J. Park (2023) Janubiy Koreya tajribasiga asoslangan tadqiqotida ishtirokchi byudjetlashtirishning fiskal natijalarga ta'sirini tahlil qilgan. U o'z ishida jamoatchilik ishtirokining davlat xarajatlari samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishini empirik ravishda isbotlagan [3].

D. Schugurensky (2024) esa mahalliy rivojlanishda ishtirokchi byudjetlashtirish mexanizmlarining roli haqida yozgan. Uning tadqiqotida fuqarolarni budjet jarayonlariga jalb etish orqali hududiy rivojlanish samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatib berilgan [4].

OECD (2024) tomonidan tayyorlangan hisobotda esa budjet jarayonlarida fuqarolar bilan samarali muloqot olib borish va ochiqlikni ta'minlashning to'qqizta asosiy tamoyili ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatda xalqaro tajriba asosida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish mexanizmlari taklif etilgan [5].

P. Jin (2025) Xitoy tajribasi asosida olib borgan ilmiy ishida raqamli budjet nazorati tizimlarining shaffoflikka ta'sirini tadqiq qilgan. Uning natijalariga ko'ra, 288 ta shahar misolida elektron platformalar orqali olib borilgan nazorat davlat xarajatlari samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda [6].

2025-yilda chop etilgan yana bir tadqiqotda ishtirokchi byudjetlashtirish, jamoatchilik oldidagi javobgarlik va ichki nazorat tizimlari birgalikda ko'rib chiqilgan. Unda ushbu omillarning uyg'unligi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishini ko'rsatuvchi ilmiy dalillar keltirilgan [7].

Shuningdek, "Byudjet jarayonida jamoatchilik ishtiroki: nazariya va metodologiya" (2025) nomli maqolada



budjet jarayonida xalq ishtirokini ta'minlash metodologiyasi ishlab chiqilgan. Mualliflar nazariy jihatdan ishtirokchi byudjetning asosiy tamoyillari va ularni amaliyotga tatbiq etish usullarini ko'rsatib bergan [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'laridan foydalanishda jamoatchilik nazoratining kuchayishi natijadorlikni ta'minlaydi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Xalqaro hamda milliy tadqiqotlar bu borada raqamli platformalar, ochiq ma'lumotlar standartlari va ishtirokchi byudjetlashtirish mexanizmlarining muhimligini alohida ta'kidlamogda. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish, fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish va institutsional asoslarni mustahkamlash zaruriyati ham dolzarb bo'lib qolmogda.

METODOLOGIYA

Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jarayonida bir nechta metodologiyalardan foydalanish mumkin. Ushbu metodlar davlat moliyasi tizimining shaffofligini oshirish, fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va samarali boshqaruvni ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi.

Kuzatuv metodi budjet mablag'larining sarflanishi jarayonlarini bevosita kuzatish imkonini beradi. Ushbu metod yordamida budjet mablag'larining qaysi yo'nalishlarga ajratilayotgani, ularning maqsadli ishlatilishi va natijalari aniqlanadi. Shu orqali davlat idoralari faoliyatining ochiqqligi hamda jamoatchilik nazorati samaradorligi haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Komparativ (taqqoslash) metodi turli mamlakatlarda jamoatchilik nazorati va budjet xarajatlari samaradorligini oshirish bo'yicha qo'llanilgan tajribalarni qiyoslash

imkonini beradi. Masalan, Braziliya yoki Janubiy Koreya tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari bilan solishtirish orqali samarali mexanizmlarni aniqlash mumkin. Bu yondashuv milliy tizimni xalqaro andozalarga yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

SWOT tahlili metodidan foydalanish orqali jamoatchilik nazoratining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlanadi. Masalan, kuchli tomon sifatida davlatning ochiq ma'lumotlar siyosati, zaif tomon sifatida fuqarolarning moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi, imkoniyat sifatida raqamli platformalarning joriy etilishi, tahdid sifatida esa korrupsiya xavfining mavjudligi ko'rsatib o'tilishi mumkin. SWOT tahlili nazorat tizimini strategik rivojlantirishda aniq yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

Kontent tahlili metodidan foydalanish orqali davlat hisobotlari, qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va ilmiy adabiyotlar o'rganiladi. Bu metod yordamida budjet ochiqqligi va fuqarolarning ishtirokini yorituvchi hujjatlar tahlil qilinadi va ularning amaliy samaradorligi baholanadi. Natijada, nazorat mexanizmlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy va institutsional takliflar ishlab chiqiladi.

Budjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashda yuqorida keltirilgan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatuv, komparativ tahlil, SWOT va kontent tahlili metodlarini birgalikda qo'llash orqali davlat xarajatlarining shaffofligi va natijadorligini oshirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda xalqaro tajribaga asoslangan samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat budjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki



fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlash hamda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ham, mamlakatimizda ham dolzarb masalalardan biriga aylandi. Rivojlangan davlatlarda fuqarolarni budget jarayonlariga keng jalb etish, ishtirokchi byudjetlashtirish, ochiq ma'lumotlar platformalari va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali davlat moliyasi ustidan samarali nazorat ta'minlanmoqda. Jumladan, Braziliya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlarida ishtirokchi byudjetlashtirish natijasida fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi ortib, budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan jamoatchilik ishtiroki kuchaymoqda.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2018-yildan boshlab "Ochiq budget" axborot portali faoliyat yuritmoqda va u orqali davlat budjeti loyihasi, mahalliy budjetlar daromad va xarajatlari, shuningdek, "Fuqarolar budjeti" ko'rinishidagi tushunarli ma'lumotlar jamoatchilikka taqdim etilmoqda. 2021-yildan boshlab esa fuqarolar mahalliy budjet mablag'larining 5 foizigacha bo'lgan qismini o'z tashabbuslari asosida yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa ishtirokchi byudjetlashtirishning amaliy shakli bo'lib, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonida bevosita ishtirokini ta'minlamoqda.

Bundan tashqari, Davlat moliyaviy nazorati departamenti faoliyati kengaytirilib, unda jamoatchilik vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda.

"Antikorrupsiya agentligi"ning tashkil etilishi ham budget mablag'laridan foydalanishda ochiqlikni oshirish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda davlat idoralarining hisobdorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ham ushbu sohada ijobiy natijalar bermoqda. Masalan, davlat xaridlari elektron tizim orqali amalga oshirilayotgani, "my.gov.uz" portali orqali fuqarolarga budget jarayonlariga oid ochiq ma'lumotlar taqdim etilayotgani va budget ijrosini monitoring qilish imkoniyatlari kengaytirilayotgani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda budget mablag'laridan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlik sezilarli darajada oshmoqda. Fuqarolarning budget jarayonlarida ishtiroki uchun huquqiy va institutsional asoslar yaratilmoqda. Shuningdek, raqamli platformalar va ochiq ma'lumotlar bazalarining joriy etilishi jamoatchilik nazoratining samaradorligini kuchaytirmoqda. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish orqali budget mablag'larining oqilona sarflanishi, korrupsion xatarlarning kamayishi va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki yanada kuchayishi kutilmoqda.

Oliy Majlis Senati Kengashining 2025 yil 13 yanvardagi 34-sonli qarori qabul qilinib, unga asosan "Tashabbusli byudjet" jarayonlariga bir qancha o'zgarishlar kiritildi. Maqsad joylardagi infratuzilma loyihalarining qamrovini kengaytirish, barcha uchun teng sharoitlarni yaratishga qaratilgandir. Muhimi ushbu loyihalarga ajratilayotgan mablag'lar bo'yicha ham o'zgarishlar bo'ldi[9].



qonuniylik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqqligi;

jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi;

jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchiligi;

jamoatchilik nazorati subyektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari [10]

So'nggi yillarda davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalasi ko'plab mamlakatlar kun tartibiga chiqmoqda. Turli davlatlarda budjet jarayonlarining ochiqqligi, fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtiroki, shaffoflik darajasi va korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha turlicha yondashuvlar qo'llanilmoqda.

udjet mablag'laridan foydalanishda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, hali bir qator kamchiliklar mavjud. Eng avvalo, fuqarolarning moliyaviy savodxonligi pastligi ularga taqdim

etilayotgan ochiq ma'lumotlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'ymoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari va OAVning sust ishtiroki ham jamoatchilik nazoratini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli platformalar imkoniyatlari yetarlicha ommalashmagan, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining zaifligi nazorat jarayonlarida fuqarolarning faol ishtirokiga xalaqit bermoqda.

Shuningdek, ochiq ma'lumotlarning sifat va to'liqligi bilan bog'liq muammolar mavjud: ayrim hisobotlar kechikib e'lon qilinadi yoki oddiy fuqarolar uchun



tushunarsiz shaklda taqdim etiladi. Byurokratik qarshilik va korrupsion xavflar ham jamoatchilik nazoratining samaradorligini pasaytirayotgan omillardan biridir. Qolaversa, fuqarolarning tashabbuslari doirasida ajratiladigan mablag' hajmi cheklanganligi, ularning qaror qabul qilishdagi real ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Umuman olganda, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun institutsional asoslarni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini keng jalb etish, raqamli infratuzilmani yaxshilash va korrupsiyaga qarshi kurash choralarini yanada kuchaytirish talab etiladi.

Davlat byudjeti ustidan jamoatchilik nazorati (2024 yil ma'lumotlari asosida)[11]

	Davlat	Budjet ochiq-lik indeksi (OBI, %)	Fuqarolar ishtiroki imkoniyati (%)	Jamoatchilik nazoratida raqamli platformalar	Qisqa tavsif
	O'zbekiston	45 %	30 %	Ha (Ochiq budget, my.gov.uz)	Ishtirokchi byudjet loyihalari orqali fuqarolar mablag'larning 5 % qismiga ta'sir ko'rsatmoqda.
	Janubiy Koreya	85 %	70 %	Ha	PB (participatory budgeting) keng joriy qilingan, fuqarolar har yili minglab loyihalarni moliyalashtirishda qatnashadi.
	Braziliya	80 %	65 %	Ha	PB tajribasi 1989-yildan boshlangan, korrupsiya darajasi sezilarli kamaygan.
	AQSh	78 %	55 %	Ha	Ayrim shtatlarda ochiq ma'lumotlar portallari faol ishlamoqda, federal darajada ham shaffoflik kuchaymoqda.
	Germaniya	75 %	50 %	Ha	Budjet hujjatlari to'liq ochiq, lekin fuqarolarning bevosita ta'siri cheklangan.
	Fransiya	73 %	52 %	Ha	Fuqarolar takliflarini yig'ish tizimi mavjud, ammo keng ko'lamli PB amaliyoti sustroq.



	Kanad	70 %	48 %	Ha	Ochiq ma'lumotlar platformasi faol, fuqarolar ishtiroki asta-sekin kengaymoqda.
	Hindis ton	60 %	40 %	Qisman	Ayrim shtatlarda PB qo'llanilmoqda, biroq mamlakat miqyosida tizim hali to'liq joriy etilmagan.
	Rossi ya	55 %	35 %	Qisman	"Xalq byudjeti" loyihalari bor, lekin shaffoflik past darajada.
0	Shvets iya	88 %	72 %	Ha	Moliyaviy shaffoflik va fuqarolar ishtiroki bo'yicha yetakchi davlatlardan biri.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda Shvetsiya, Janubiy Koreya va Braziliya kabi davlatlar yuqori natijalarga erishgan. Ularning umumiy jihati - budjet ma'lumotlarining maksimal darajada ochiqligi (80–88 %) va fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlash (65–72 %). Bu esa korrupsiya xavfini kamaytirib, davlat boshqaruvida ishonchni kuchaytirgan.

O'zbekiston hozircha 45 % ochiqlik darajasi va 30 % fuqarolar ishtiroki bilan o'rtacha ko'rsatkichlarga ega. Biroq, oxirgi yillarda joriy etilgan "Ochiq budjet" portal va ishtirokchi byudjet mexanizmlari tufayli ijobiy o'sish kuzatilmoqda. Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston xalqaro tajribadan

foydalangan holda shaffoflikni oshirishi va fuqarolarni yanada faolroq jalb etishi mumkin.

Hindiston va Rossiya tajribasida esa qisman ochiqlik mavjud bo'lsa-da, fuqarolar ishtiroki yetarli darajada emas. AQSh, Germaniya va Kanada o'rtacha ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ularning asosiy ustunligi - kuchli qonunchilik va ochiq ma'lumotlar tizimi hisoblanadi.

O'zbekiston uchun asosiy yo'nalishlar - raqamli platformalarni yanada rivojlantirish, fuqarolarning budjet jarayonlariga kengroq jalb etilishini ta'minlash va xalqaro eng yaxshi tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishdir.



Budjet mablag'laridan foydalanishda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning SWOT tahlili

Kategoriyalar	Mazmuni
Kuchli tomonlar (S)	- "Ochiq budjet" portali orqali ma'lumotlarning jamoatchilikka ochiq taqdim etilishi. - Fuqarolarning mahalliy budjet mablag'larining 5 % qismiga ta'sir o'tkazish imkoniyati. - Korrupsiyaga qarshi siyosat va maxsus agentlik faoliyatining kuchaytirilishi.
Zaif tomonlar (W)	- Fuqarolarning moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi. - Jamoatchilik nazoratida nodavlat tashkilotlar va OAVning ishtiroki yetarli emas. - Ochiq ma'lumotlardan foydalanish ko'nikmalari sust rivojlangan.
Imkoniyatlar (O)	- Xalqaro tajribalardan (Janubiy Koreya, Braziliya, Shvetsiya) foydalanish imkoniyati. - Raqamli platformalar va mobil ilovalar orqali fuqarolar ishtirokini kengaytirish. - Yoshlar va fuqarolik jamiyati institutlarini faol jalb etish.
Tahdidlar (T)	- Korrupsion xavf va manfaatlar to'qnashuvi. - Siyosiy beqarorlik yoki byurokratik qarshiliklar. - Raqamli infratuzilma yetishmasligi va texnologik tafovutlar.

Ushbu SWOT tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda budjet mablag'laridan foydalanishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan bir qator ijobiy shart-sharoitlar mavjud. Kuchli tomon sifatida "Ochiq budjet" portali va ishtirokchi byudjetlashtirish amaliyoti fuqarolarning moliyaviy jarayonlarga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Shu bilan birga, zaif tomon sifatida aholining moliyaviy savodxonligi yetarli darajada emasligi va nodavlat tashkilotlarning jarayonlarda passivligi muammoli jihat bo'lib qolmoqda.

Imkoniyatlardan samarali foydalanish-xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish, raqamli platformalarni kengaytirish va fuqarolik jamiyati ishtirokini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq, korrupsion xavf, siyosiy qarshiliklar

va raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi tahdid sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, kuchli tomonlarni mustahkamlash va imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali zaifliklarni kamaytirish va tahdidlarni yumshatish mumkin. Natijada, budjet mablag'laridan samarali foydalanish va jamoatchilik nazoratining rivojlanishi kafolatlanadi.

Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bir nechta yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Avvalo, ochiq ma'lumotlar tizimini kengaytirish va budjet hujjatlarini oddiy fuqarolar uchun tushunarli shaklda e'lon qilish zarur. Shuningdek, ishtirokchi byudjetlashtirishni rivojlantirish orqali



fuqarolar mahalliy budjet mablag'larining taqsimotida faol ishtirok etishlari ta'minlanadi. Raqamli platformalar va mobil ilovalarni joriy etish nazorat jarayonlarini tezkor, shaffof va ommabop qiladi. Shu bilan birga, fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish, nodavlat tashkilotlar va OAVning faol ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilik nazorati yanada kuchayadi. Xalqaro tajribani o'rganib, uni milliy sharoitga moslashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish ham samaradorlikni oshirishda muhim omillardandir. Umuman olganda, ochiqlik, hisobdorlik va keng jamoatchilik ishtiroki budjet mablag'laridan oqilona foydalanishning eng muhim garovi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratining o'rni beqiyosdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda "Ochiq budjet" portali, fuqarolar tashabbuslari uchun ishtirokchi byudjetlashtirish, davlat xaridlarida elektron tizimlarning joriy etilishi kabi qator ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Biroq, jamoatchilik nazoratining samaradorligini oshirish uchun moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, xalqaro ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarurligi saqlanib qolmoqda.

Fikrimizcha, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ochiq ma'lumotlar tizimini kengaytirish -budjet daromad va xarajatlari haqidagi ma'lumotlarni muntazam yangilab borish, ularni oddiy fuqarolar uchun qulay va tushunarli shaklda taqdim etish.

2. Fuqarolarning ishtirokini kengaytirish-ishtirokchi byudjetlashtirish mexanizmlarini mahalliy darajada yanada ommalashtirish, aholining tashabbuslarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag' hajmini oshirish.

3. Moliyaviy savodxonlikni oshirish-ta'lim muassasalari, OAV va NNTlar orqali fuqarolarning budjet jarayonlari haqidagi bilimlarini kengaytirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

4. Raqamli platformalarni rivojlantirish -nazorat va tahlil jarayonlari uchun mobil ilovalar va interaktiv onlayn tizimlarni keng joriy etish.

5. Xalqaro tajribani moslashtirish - Braziliya, Janubiy Koreya va Shvetsiya kabi mamlakatlarning ishtirokchi byudjetlashtirish tajribasini milliy sharoitga tatbiq etish.

6. Korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish-davlat xaridlari va tender jarayonlarida shaffoflikni oshirish, jamoatchilik vakillari va mustaqil ekspertlarni jalb qilish.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish budjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlabgina qolmay, balki davlatning hisobdorligini oshiradi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini mustahkamlaydi. Shu bois ushbu yo'nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish mamlakatimiz moliya tizimining samaradorligini ta'minlashning eng muhim shartidir.



1. <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>
2. Muhamadaliyevich, X. J. (2023). Budget mablagʻlari ijrosi samaradorligi va natijadorligini oshirishda jamoatchilik nazoratining oʻrni. International Journal of Theoretical and Practical Research, 15–27.
3. Park, J. (2023). Understanding public participation as a mechanism affecting government fiscal outcomes: Theory and evidence from participatory budgeting. Journal of Public Administration Research and Theory, 33(2), 380–390.
4. Schugurensky, D. (2024). Participatory budgeting and local development. Journal of Civic Engagement and Local Development, 50–65.
5. OECD. (2024). Empowering Public Understanding: Citizen Dialogue in Budgeting (pp. 16–19). OECD Publishing.
6. Jin, P. (2025). Digital budget supervision governance and local government fiscal transparency: Evidence from 288 prefecture-level cities. Journal of Digital Governance, 200–225.
7. Participation in budgeting, public accountability, and performance: Does internal oversight matter? ResearchGate, 10–30.
8. Public participation in the budget process: Theory and methodology. ResearchGate, 1–20.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Tashabbusli budget jarayonlarini oʻtkazish hamda moliyalashtirish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida” qarori, 13.01.2025 yildagi KQ-34-V-son
10. <https://lex.uz/docs/-3679092>
11. International Budget Partnership (2023). Open Budget Survey 2023: Global Report. Washington, D.C.: IBP. <https://www.internationalbudget.org/open-budget-survey>